

PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISHDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Xamidova Feruza Turdiyevna

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

pedagogika va psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi

To‘xsonova Zarina

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

Pedagogika ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Usmonova Marjona

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

Pedagogika ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasida oliy ta’lim muassasalari tahsil oluvchilarining bilim, ko‘nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, intellektual va deyantologik kamolotini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, uni pedagogizatsiyalash, o‘quv predmetlariga sog‘lomlashtiruvchi texnologiyalarni joriy etish,uzviyligi va uzluksizligi,rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta’minlash, mutaxassislarni, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish vazifalari toliq yoritilib berilgan

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya,shaxs, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kreativlik, maxsus bilimlar, ko‘nikmalar, motivlar va kasbiy muhim sifatlar, qobiliyat

Аннотация: В статье в теории и методике воспитания и обучения рассматриваются вопросы совершенствования знаний, умений и квалификации студентов высших учебных заведений, развития их интеллектуальной и деориентологической зрелости, повышения качества образования, его педагогизация, совершенствование учебных предметов. Полностью освещены задачи внедрения технологий, обеспечения их целостности и преемственности, разработки и социализации целей, развития профессиональных компетенций специалистов, в том числе будущих специалистов.

Ключевые слова: образование, подготовка, личность, компетентность, профессиональная компетентность, креативность, специальные знания, умения, мотивы и важные профессиональные качества, способности.

Annotation: In the article, in the theory and methodology of education and training, the improvement of knowledge, skills, and qualifications of students of higher education institutions, the development of their intellectual and deontological maturity, the improvement of the quality of education, its pedagogization, the improvement of educational subjects The tasks of introducing technologies, ensuring their integrity and continuity, developing and socializing goals, and developing the professional competencies of specialists, including future specialists, are fully covered.

Key words: education, training, personality, competence, professional competence, creativity, special knowledge, skills, motives and important professional qualities, ability

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasida oliy ta'lim muassasalari tahsil oluvchilarining bilim, ko'nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, intellektual va deontologik kamolotini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, uni pedagogizatsiyalash, o'quv predmetlariga sog'lomlashtiruvchi texnologiyalarni joriy etish, uzviyligi va uzluksizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta'minlash, mutaxassislarni, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish vazifalari qo'yilmoqda.

Konseptual asoslarga muvofiq ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibi, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish, ta'lim-tarbiya tizimini bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera oladigan qilib boshqarishga yo'l ochilmoqda.

Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish alohida dolzarflik kasb etadi.

Har bir jamiyat o'ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga o'z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e'tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va

boshqa qator talablar qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir.

Ta'lim, madaniyat, ilm-fan sohalaridagi integratsiya zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligiga ham ta'sir o'tkazmoqda. So'nggi yillar ichida jahonda ta'limning: yevropa, Janubiy Osiyo, Amerika qo'shma shtatlarining ta'lim modellari asosida akademik infratuzilma shakllangan bo'lib, nufuzli universitetlar mana shu ta'lim andozalari yordamida pedagogik faoliyatlarini olib bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasida 1997 yildan e'tiboran milliy mentalitetimizga mos bo'lgan Milliy ta'lim modeli yaratildi. Bu esa, mamlakatimizda ta'lim texnologiyalarini tatbiq etishda o'qitish sifati ijtimoiy buyurtma va davlat ta'lim standartlariga mos tarzda ta'limiy mahsulotlar hamda xizmatlarni talabalarga ta'sir etganlik darajasining natijasini belgilaydi.

Ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda shaxsning ijtimoiy-kasbiy bilimdonligining rivojlanishi bilan bog'liq ehtiyojlar va intilishlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'qitish sifatini o'quv faoliyatining turli yo'nalishlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar yig'indisi belgilaydi. Jumladan, ta'lim mazmuni, o'qitish shakllari va metodlari, o'quv jarayonining moddiy-texnik bazasi, kadrlar tarkibi kabilar. Bularning barchasi o'qitishda yaxlit tarzda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Tarixiy-mazmun jihatdan 1940 yillar boshiga kelib, kadrlarning psixofiziologik xususiyatlari va psixik jarayonlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda uning shaxs xususiyatlarini qayd etish mumkin. XX asrning oxirgi

o'n yilligida asosiy ilmiy yondashuvlarni ikkiga ajratish mumkin bo'lgan kasbiy pedagogika tarmoqlari doirasida shaxsning shunga o'xshash tadqiqotlarini jadalligi ayniqsa, oshdi. Rossiya psixologiyasida birmuncha keng yoyilgan birinchi yondashuv kadrning alohida individual pedagogik o'ziga xos xususiyatlarini, kompleks kasbiy muhim sifatlarni ularning o'zaro aloqasini va kasbiy faoliyat jarayonini muvaffaqiyatiga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq.

Insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish ham fundamental ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. R.Z.Gaynutdinov rahbarligida kasbiy tiklanishning turli muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rivojlanishning turli bosqichlarida shaxsning alohida xossalari ustuvorligi ularning shaxsiy-kasbiy adaptatsiyasi ifodalanib, unda shaxsning kasb bilan identifikatsiyalash ko'rsatkichi o'rganiladi. Keyingi ilmiy tadqiqotlarda ham amaliy vazifalarni hal etish uchun muallifning talabalarning o'qish yillarida o'zi haqidagi tasavvurlarning bog'liqligi keyin o'z tajribasini amaliy faoliyatda interpretatsiyalash ularning integral «Men»ning kasbiy tiklanishidagi ahamiyatini aniqlash imkonini berish haqidagi xulosasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy tiklanishda muvaffaqiyat ko'p jihatdan o'ziga pozitiv munosabat omillari bilan belgilanadi. SH.G.Saparovning o'qituvchilar shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida ta'kidlanadiki, ularning shakllanishi va rivojlanishi ularning kasbiy faoliyatida amalga oshadi, ya'ni namoyon bo'lish darajasi va sifati o'qituvchilarning yoshi va ish stajiga uzviy bog'liqdir. SHuningdek, muallif jins va kasbiy faoliyatning motivatsion asosi kabi omillarni ko'rsatadi. "Muvaffaqiyatga erishishga ehtiyojning yuqori darajasi tendentsiyasi asosan 10 yilgacha mehnat staji bo'lgan 30-35 yoshgacha o'qituvchilarda namoyon bo'ladi. Keyin faoliyatda muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji barqarorlashib, o'rtacha qiymatlar darajasida boradi». Bular:

- shaxsiy-professional komponentlikning nisbati;
- emotsional barqarorlik va kasbiy identivlik;
- o'ziga hurmat va «Men»ning ichki muvofiqligi;
- dinamizm, yutuqlarga ehtiyoj, elektrovertlanganlik, atrofdagilarning o'ziga nisbatan pozitiv munosabatini kutish;
- internallik (ichki nazorat darajasi).

Kasb tanlash chog'ida pedagogik tayyorgarlik yoki yetuklik kasbiy o'zini o'zi anglashning muhim omili bo'lib kasbni to'g'ri tanlashda yordamlashadi va barqarorlikda namoyon bo'ladi. Bu onglik, mustaqillik bilan ta'minlanadi va kasbiy tanlovning formal-dinamik jihatiga kiradi. SHunday qilib, kasbiy tanlovning barcha

mazmuniy va formal-dinamik jihatlari umuman shaxsning kasbiy rivojlanishi ma'lum strategiyasi shakllanishiga ko'maklashadi.

Bizningcha, buni aqliy imkoniyatlari sifatida emas, balki ularning a'naviy talqinidan foydalanilsa, o'zini anglash reflektiv jarayonlarining shakllanganligi va rivojlanganligi darajasi sifatida ta'riflash aniqroq bo'lardi.

U.S.Jumayev tomonidan "O'smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimi shakllanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik ishida kichik, real guruh a'zolari o'smirlarda kasb tanlashga munosabat va uning umumta'lim maktab talabalarida shakllanishining namoyon bo'lishi va dinamikasi tadqiq qilingan. SHuningdek, kasb tanlashga munosabat tizimi ko'rsatkichlari (o'rtacha umumiy va qiyosiy-tipik) tahlil etilib, tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, kasb tanlashga munosabat tizimining yosh xususiyatlari tavsiflab berildi.

Mutahassisning kasbiy-shaxsiy shakllanishi muammolarini tahlili uning ikki jihatlari o'zaro aloqasini yoritishdan kelib chiqqan holda o'tkazish muhim hisoblanadi: bir tarafdin tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, mutaxassis shaxsining shakllanishida insonda kasbiy faoliyatning muvofiqqligini aniqlash muhim hisoblanadi, chunki kasbiy faoliyatning o'zi faqatgina inson uchun xosdir⁶.

L.V.Voroninaning "Tabiiy-ilmiy mutaxassisliklar talabalarida kasbiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish" [5]; A.N. Kulibekov "Tarmoqli o'quv kurslaridan foydalangan holda bo'lajak magistrantlarning kasbiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish" [3] kabi ilmiy ishlanmalarida mazkur masala u yoki bu darajada yoritilgan. Tadqiqotimiz mavzusiga taalluqli bo'lgan mazkur ishlarni va boshqa ilmiy manbalarni o'rganish natijalari⁷ quyidagilarni xulosa qilishga asos bo'ladi:

o'qituvchining ijodiy kompetentligini rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan qariyb barcha tadqiqotlar pedagogik OTMLarda ta'lim olayotgan talabalar orasida o'tkazilgan, ya'ni boshlang'ich maktabning bo'lajak o'qituvchilarida va o'rta maktabning bo'lajak fan o'qituvchilarida; ijodiy kompetentlikni maktab fan o'qituvchilarining, shuningdek malaka oshirish kurslarida ta'lim olayotgan va o'ziga

⁶ Ananov B.G. CHelovek kak predmet poznaniya. L: Izdatelstvo LGU, 1969, 336s; Platonov K.K. Struktura irazvitiya lichnosti. M., 2018.-255s.

⁷ Mavzular bo'yicha: o'qituvchining, pedagogning «pedagogik ijodi», «ijodiy faoliyati», «ijodiy salohiyati», «kasbiy kompetentligi», «ijodiy kompetensiyasi».

*o'zi ta'lim berish bilan shug'ullanayotgan o'qituvchilar*⁸ kompetensiyasini rivojlantirishning muammoli masalalari yetarli darajada o'rganilmagan, eksperimental pedagogik tadqiqotlarda ijodiy kompetentlik o'qituvchi kompetensiyasi masalalarini o'rganishning predmeti hisoblangan qandaydir kontekstda ko'rib chiqilgan, masalan, ijodiy pedagogik faoliyat; pedagogik ijod; ijodiy salohiyat; professionalizm; o'qituvchining pedagogik mahorati; ilmiy dissertatsion ishlarda va mualliflik publikatsiyalarida (maqolalar, dokladlar, monografiyalar va boshq.) o'qituvchining pedagogik hodisa hisoblangan ijodiy kompetentligining mohiyati haqida, adekvat ijodiy-rivojlantiruvchi ta'lim va ijtimoiy-madaniy fazo haqida va ta'lim muassasalarida, qayta tayyorlash va malaka oshirish institutlarida ularni yaratish uslublari haqida, shuningdek, o'qituvchi ijodiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini ilmiy-metodik va texnologik jihatdan ta'minlash haqida *yaxlit bilim* shakllanmagan. Yuqorida sanab o'tilgan barcha ishlar va ilmiy publikatsiyalar konsepsiyalarni, modellarni va texnologiyalarni, xulosalarni va tavsiyalarni rivojlantiradigan nazariy qoidalarni o'zida mo'jassamlashtiradi. Ularning barchasi shaxsga yo'nalgan, kompetentli va texnologik [3] yondashuvlar asosida maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajribaviy-eksperimental ishni tashkil etish va o'tkazish uchun zarur nazariy-informatsion, metodologik va metodik baza hisoblanadi.

SHu munosabat bilan, biz o'ylaymizki, talabalarda kelgusi faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini keyinchalik tahliliy-analitik, tashkiliy-metodik va texnologik jihatdan ishlab chiqish olim-pedagoglarning ilgarigi ishlari natijalari bilan mustahkam aloqada amalga oshirilishi zarur. Mazkur ishlarda kompetentlik, kompetensiya, kasbiy kompetentlik quyidagicha ko'rilishi zarur:

an'anaviy va noan'anaviy pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan uning *integrativ kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi*;

⁸ Kazanseva V. V. ning nomzodlik dissertatsiyasi bundan mustasno. O'ziga o'zi ta'lim berish faoliyatida boshlang'ich maktab o'qituvchisining ijodiy kompetentligini shakllantirish. [19]).

umumiy madaniy eruditsiya, pedagogik tafakkur, maxsus kasbiy qobiliyat va ko'nikmalar, ijodiy tayyorgarlik. Ular ijodiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatlari kompleksini tashkil etadi Tutolmin A.V. [5]);

- pedagogning kasbiy ijodiy faoliyatini amalga oshirishga nisbatan tayyorgarligini ta'minlab beruvchi *maxsus bilimlar, ko'nikmalar, motivlar va kasbiy muhim sifatlarni o'plami tizimiga kiradigan shaxsning integrativ xususiyati* kasbiy-pedagogik kompetentlikning elementi, uning tizim osti holati hisoblanadi; pedagog kasbiy-ijodiy kompetentligining komponentlari – kognitiv, faoliyatga taalluqli, motivatsion, shaxs komponentlaridir (Paxtusova N.A. [3];

Bo'lajak pedagogning integrativ kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi bo'lib, u o'zida o'qituvchining quyidagi sifat xarakteristikalarini mujassamlashtiradi: innovatsionlilik, mobillik, kreativlik; ijodkor o'qituvchi shaxsiy va ijtimoiy mobillikka, bilish mobilligiga, innovatsiyalarga va noan'anaviy tafakkurga nisbatan qobiliyatga, innovatsion ta'limni amalga oshirish qobiliyatiga ega

bo'ladi; nisbatan samaraliroq texnologiyalarni tanlay biladi; talabalarning ijodiy taraqqiyotini malakali holda qo'llab-qo'ltiqalaydi (Morxova I.V. [4]);

- ta'lim va amaliyot jarayonida o'zlashtirilgan bilim va tajribaga asoslangan *ijodiy faoliyatga qobiliyat va tayyorgarlikni aks ettiradigan OTM talabasi shaxsining sifati* ijodiy darajada kasbiy faoliyatni bajarishga tayyorgarlik; nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati hamda shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyati sifatida kasbiy-ijodiy faoliyatda mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirokiga yo'naltirilgan holda ta'lim olayotgan *ijodiy kompetensiyaning* tuzilmaviy komponentlaridan tashkil topadi (Pleshev V. V., Rassamagina F. A.) [5]; *kasbiy kompetentlik rivojlanishining yuqori darajasi*, bunda o'qituvchi stabil darajada va uzluksiz holda ijodiy asosda kasbiy faoliyatni amalga oshiradi; bo'lajak o'qituvchining *ijodiy kompetentligini rivojlantirish kasbiy kompetentlikning* tuzilmaviy komponentlariga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023),

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020),
3. Ananov.B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. L: Izdatelstvo LGU,1969,336s; Platonov K.K. Struktura irazvitiya lichnosti. M., 2018.-255s.
4. Mavzular bo‘yicha: o‘qituvchining, pedagogning «pedagogik ijodi», «ijodiy faoliyati», «ijodiy salohiyati», «kasbiy kompetentligi», «ijodiy kompetensiyasi».
5. Kazanseva V. V. ning nomzodlik dissertatsiyasi bundan mustasno. O‘ziga o‘zi ta’lim berish faoliyatida boshlang‘ich maktab o‘qituvchisining ijodiy kompetentligini shakllantirish.